



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Difuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
"Qurilish jarayonlari texnologiyasi" fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Said Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Xakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi "muhosaba" va "tafakkur" amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehrining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы	211
Сулейманова Нилуфар Камиловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	



O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'riboyevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafruz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	

O'QITUVCHI KASBIY FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI

M. Yu. Mahkamova

Renessans ta'lim universiteti

Pedagogik ta'lim va psixologiya kafedrası professori

Annotatsiya: Maqolada o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyati shaxs sifatları tarzida namoyon bo'lishi yoritilgan. Unda pedagogik muomala madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-ma'naviy asoslari ochib berilgan. Shuningdek, o'rta maxsus o'quv yurtlari pedagoglarining talabalar bilan muomala odobini shakllantirish tizimi tahlil qilingan. Tadqiqotda o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala odobining tarbiyalanganlik darajasi aniqlanib, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: muomala, tizim, ma'naviyat, madaniyat, zamonaviy bilim, ko'nikma, uslubiyat, pedagogik boshqaruv, ta'lim, tarbiya, urf-odatlar, an'analar, insoniylik, pedagogik faoliyat, mahorat, muomala madaniyati, suhbat, pedagogik fikrlash, o'quv jarayoni, metodlar, pedagogik tizim, kreativ fikrlash, psixologik xususiyatlar, muomala odobi, muloqot vositasi.

Abstract: The article explores the culture of communication among students of secondary specialized educational institutions as an essential aspect of personal development. It reveals the socio-spiritual foundations of pedagogical communication culture formation and analyzes the system for developing teachers' communication etiquette with students. The study also identifies and examines the level of communicative etiquette education among students of secondary specialized institutions.

Key words: communication, system, spirituality, culture, modern knowledge, skills, methodology, pedagogical management, education, upbringing, traditions, humanity, pedagogical activity, professional competence, communication culture, pedagogical thinking, educational process, methods, pedagogical system, creative thinking, psychological features, communication etiquette, means of interaction.

Аннотация: В статье рассматривается культура общения студентов средних специальных учебных заведений как одна из значимых личностных характеристик. Раскрываются социально-духовные основы формирования педагогической культуры общения. Проанализирована система формирования этикета общения педагогов средних специальных учебных заведений со студентами. Определён и проанализирован уровень воспитанности этикета общения у студентов данных учебных заведений.

Ключевые слова: общение, система, духовность, культура, современные знания, навыки, методика, педагогическое управление, образование, воспитание, традиции, гуманизм, педагогическая деятельность, мастерство, культура общения, педагогическое мышление, учебный процесс, методы, педагогический процесс, креативное мышление, психологические особенности, этикет общения, средство коммуникации.

KIRISH

Mustaqillikdan keyin amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar tufayli ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Odamlarning ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida har bir fuqaroning bilim olishida, ijodiy qobiliyatini shakllantirishda, intellektual jihatdan rivojlantirishda o'qituvchining muloqot madaniyati va muomalasi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ta'kidlash joizki, pedagogik kasbga nisbatan talab va javobgarlik ham kuchaydi, o'qituvchilarning jamiyat oldidagi vazifalari yanada oshdi. Buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish kabi vazifalarga javobgarlik hissi o'qituvchilar zimmasiga yuklatildi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no-maz-



muni va asl sabablarini chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezoni bo'lishi kerak... Bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma'naviy, kerak bo'lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi".

Bu vazifalarning bajarilishiga, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lgan o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muomalaga kirishish madaniyati orqali erishiladi. O'quvchi ma'naviy muhitining shakllanishi o'qituvchilarning yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo'ladi. Bu o'rinda o'qituvchining shaxsiy va ijtimoiy harakati pedagogik muloqot madaniyati zamirida shakllanib, takomillashadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tahlil qilingan. Pedagogika: Ensiklopediya asarida muloqot madaniyati ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'riladi, u o'qituvchi shaxsining kasbiy kompetensiyasi, nutq madaniyati, psixologik tayyorgarligi va ma'naviy qiyofasi bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlanadi. Mahkamova M. Yu. o'z tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni faollashtirish, ta'lim jarayonida hamkorlik va ishonch muhitini yaratish orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini asoslab beradi. Asaeva I. N. esa pedagogik muloqotda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning psixologik va metodik omillarini yoritib, muloqot madaniyatining ta'lim sifatiga bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida insonlar o'rtasidagi muloqotni jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida talqin qilib, axloqiy fazilatlar, hurmat va muomala odobini ustuvor qadriyat sifatida ko'rsatadi. Xorijiy tadqiqotchi Sharon Vunne kasbiy pedagogika doirasida o'qituvchi nutqining ravonligi, tinglay bilish madaniyati va verbal hamda neverbal muloqot uslublarining ahamiyatini ilmiy asoslab beradi. Mazkur manbalar muloqot madaniyatining o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi o'rni, uning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'siri va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishdagi ahamiyatini chuqur tahlil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda o'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatining shakllanishi va uning ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganildi. Ma'lumotlar to'plash jarayonida kuzatish, suhbat, so'rovnoma va tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi muloqot holatlari bevosita kuzatildi, pedagoglarning nutq madaniyati, psixologik yondashuvi va muomala uslublari amaliy tajriba asosida o'rganildi. Shuningdek, ilgari o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar va darsliklar tahlil qilinib, ularning natijalari solishtirma usulda qayta ishlangan. Olingan ma'lumotlar mazmuniy va sifat jihatdan tahlil qilinib, o'qituvchining muloqot madaniyati pedagogik samaradorlikka ko'rsatgan ta'siri aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida muloqot madaniyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari umumlashtirilib, o'qituvchi faoliyatida qo'llash imkoniyatlari belgilab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlari va hatti-harakatlari talabaning ideali sifatida namoyon bo'ladi. Talabaning o'qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari, uning hatti-harakati, pedagogik mahorati uning ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natijalar bermaydi. O'qituvchi subyekti bilan o'quvchi obyekt o'rtasidagi qattiq avtoritar intizom ham o'zaro muloqot madaniyatiga salbiy ta'sir etadi, natijada o'quvchining ichki hissiyoti hamda shaxsiy fazilatlari rivojlanmaydi.

Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita bo'lib, bunda o'qituvchining muhim fazilati – uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifga ega. Pedagogikaning kategoriyasi sifatida muomala – o'quvchilar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtayi nazardan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyatidir.

O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

- o'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi;
- yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi;
- sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi;
- o'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda har bir o'quvchi qalbiga yo'l topadi.



Muomala o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni mujasamlashtiradi. Pedagogik muomalada o'qituvchi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim:

- o'qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi, uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi hamda ta'sir o'tkaza olishi;
- muomala obyekti bo'lmish o'quvchilar diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta'sirni bilishi;
- talabalarning ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, darsni boshlashdan oldin o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi;
- talabalarga og'zaki, o'zaro ta'sir ko'rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi, o'qituvchining nutqi ravon, o'quvchilar ongiga ijobiy ta'sir qiladigan bo'lishi.

Nihoyat, o'qituvchining talabalar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u talabalarning hatti-harakatlaridagi chuqur ma'no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab oladi. Buning uchun namuna sifatida o'zining tajribasidan va talabalarning xulq-atvor usullaridan foydalanadi. O'qituvchining talabalar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi hamda o'rnini to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Muomala o'zaro munosabatlar doirasida sodir bo'ladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala pedagogik faoliyatdan oldin sodir bo'ladi.

Pedagogik muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'zaro axborot almashish jarayoni vazifasini bajaradi. O'qituvchi talabalar bilan muloqot jarayonida bevosita o'z tarbiyalanuvchilari, umuman o'quvchilar jamoasi haqida, unda ro'y berayotgan turli ichki hodisalar haqida g'oyat xilma-xil axborotlarga ega bo'ladi va o'zining kelgusi ta'lim-tarbiyaviy rejalarini hamda pedagogik faoliyatini belgilaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi muloqot asosida o'z tarbiyalanuvchilariga ma'lum bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma'lum qiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan yo'l qo'yiladigan arzimas bir xatolik, adolatsizlik yoki qo'pollik o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatining buzilishiga sabab bo'ladi va tuzatib bo'lmaydigan og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatiga erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo'ladi:

- pedagogik muloqot orqali o'qituvchi tarbiyalanuvchi obyekt bilan o'ziga xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda o'qituvchi o'zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san'ati, ta'sir o'tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;
- o'qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo'lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir;
- o'quvchilar jamoasi bilan muomalada o'qituvchining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda muvozanatni saqlaydi;
- o'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan o'zaro muloqotga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo'ladi.

Mukammal shakllangan pedagogik muloqot madaniyati asosida obyekt va subyektning ichki hissiyoti bilan ularning harakatlarining uyg'unlashuvi sodir bo'ladi. Ushbu o'zaro uyg'unlashuvni yuzaga keltiradigan muomalaning asosiy bog'lovchisi – so'zdir. So'z mazmunan o'qituvchining nutqida, ma'ruzasida, dialog, monolog va deklamatsiyalarida o'z ifodasini topadi.

Pedagogik muloqot madaniyati vositasida o'qituvchi har qanday axborotni tahlil qilar ekan, o'quvchilarning shaxsi va psixologik xususiyati haqidagi ma'lumotlarning muhimligini alohida e'tiborga olishi lozim. Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchining g'oyat xilma-xil sharoit va ko'rinishlarga moslashishiga imkon yaratadi. Bular sirdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmasada, o'quvchilar ichki dunyosida sodir bo'layotgan, ularni tushunish uchun zarur bo'lgan ichki jarayonlar ko'rinishlarini bilib, ta'lim-tarbiya faoliyatini olib boradi.

O'qituvchi talabalarning ichki dunyosini tushunib, muloqotga kirishishi lozim. O'qituvchining muloqot madaniyati asosida aytilgan har bir so'zi, fikri, turli hodisa va jarayonlar talabalar tomonidan har xil ko'rinishda tushuniladi. Bu talabaning fikr mulohazasiga, ichki dunyosining teranligiga, tafakkuri va dunyoqarashining kengligiga bog'liq. Bunda o'qituvchi mahoratining uchta jihatiga alohida e'tibor qaratiladi: hayotiy tajribasi, pedagogik faoliyat jarayonida egallagan ko'nikma va malakasi, muayyan o'quvchilar jamoasi bilan muomalada bo'lish tajribasi.



Sharqona tarbiya va muosharat odobining muloqotga ta'siri

Odamlarning mehr-oqibati, bir-birlariga nisbatan o'zaro hurmat-e'tiborda bo'lishlari o'zaro muomala jara-yonida namoyon bo'ladi. Xalqimizda azaldan muloqot salomlashish madaniyatidan boshlanadi. Salomlashish turli xalqlarda har xil amalga oshiriladi. Xalqimizda salomlashish axloqlilikning yuksak namunasi sifatida e'tirof etilib, uning negizida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, millatning ruhiy xususiyatlari, o'zaro munosa-batlarning ma'naviy asoslari, bo'lajak muloqotning xarakteri va hamkorlik ruhi aks etadi. "Qur'oni karim"da salomlashish odobi musulmon ahlining qat'iy majburiy burchi tarzida bayon etiladi: "Ey mo'minlar, o'z uylarin-gizdan boshqa uylarga to'z so'ramaguningizcha va egalariga salom bermaguningizcha kirmangiz. Mana shu sizlar uchun yaxshiroqdir. Shoyad ushbu eslatmadan ibrat olsangizlar."

Ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi, ular yaratgan so'z va xalq tilining tuganmas boyligi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Hisrav Dehlaviy, Abu Hamid G'azzoliy, Kaykovus, Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa Sharq hamda G'arb donishmandlarining boy meroslarida farzandlarni tarbiyalash va kamolotga yetkazish asosiy muammo sifatida targ'ib qilingan.

Ular so'zni va nutqni ta'lim-tarbiyada ilohiy ne'mat va hikmat deb bilishgan hamda har bir so'zning o'z o'zni va ahamiyati borligini, tarbiyada so'zdan kuchliroq narsa yo'qligini ta'kidlaganlar. Tilga e'tibor – elga e'tibor, degan hikmat bugungi kunda ham dolzarbdir.

Shirin so'z muloqotga kirishishning asosiy qurolidir. U inson qalbini ilitadi, qo'pol so'z esa inson qalbini jaro-hatlaydi. O'qituvchining aql-zakovati, fikri, his-tuyg'ulari, bilimi va madaniy saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. "Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi", deyiladi. Chunki so'zning qudrati katta. O'qituvchi o'z so'ziga, tiliga nihoyatda ehtiyotkor bo'lmog'i lozim. Eng avvalo, o'quvchilarga muomala madaniyatini, kattalar oldida o'zini tuta bilishni, gapni bo'lmaslikni, yoshi ulug'larga gap qaytarmas-likni o'rgatish zarur.

Muloqot madaniyati hamma joyda kerak: ish joyida, transportda, uyda – biz kim bilan qanday muomala qilishni bilishimiz zarur. O'qituvchining qanchalik bilimli, aql-zakovatli ekanligi o'quvchilarning bir-birlari bilan va ota-onalari bilan olib boradigan muloqoti orqali namoyon bo'ladi.

Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini bir-birlariga so'z yordamida yetka-zadilar, amalga oshiradilar. Shu tufayli so'zlashuv munosabatlari nihoyatda go'zal va muloyim bo'lishini hayot taqozo etadi. So'zga boy, shirinsuxan kishilarning muomalalari yoqimli, ishi ham yurishgan bo'ladi. Bunday kishilarni yoqtiradilar, hurmat qiladilar. So'zlashuv ham o'ziga xos san'atdir. Bu san'atning ildizi muosharat odobi bo'lib, uni mukammal o'rganish har bir inson uchun zarur. Shu bilan birga, ona tilini mukammal o'rganish va sof adabiy tilda o'quvchilar bilan muloqot qilish o'qituvchining notiqlik qobiliyatidir.

Muloqot asosida ma'naviy madaniyatni shakllantirish

Darhaqiqat, O'zbekiston zaminida Sharq ma'naviy madaniyatining muhim jihatlari Uyg'onish davrida rivoj-langan bo'lib, bu davrda yashab ijod etgan al-Xorazmiy, al-Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Shayx Sa'diy, Tusi, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ko'plab muta-fakkirlarning ijodiy meroslari pedagogik tafakkur taraqqiyotida, insonning ma'naviy-axloqiy kamolotida, umum-bashariy ma'naviy qadriyatlarning yuksalishida muhim bosqich bo'ldi. Ular sharqona odob-axloq talablari asosida komil insonni tarbiyalashning ma'naviy asosini yaratishga muvaffaq bo'ldilar.

Ushbu davr ma'naviy qadriyatlari mazmunida avvalo insonning ichki va tashqi holati, hissiyoti, mehnatga, turmushga munosabati, mehr-oqibati, muhabbati, sadoqati, bilim o'rganishga intilishi, ma'naviy kayfiyati, aql-idroki, erki, insonni tabiatning eng buyuk mahsuli sifatida kuylash, tasvirlash, oliy axloqli, yuksak insoniy fazilatlariga ega bo'lgan adolatli jamoa vakilini tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan.

Inson o'z qadr-qimmatini va o'zligini umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonida anglay boshlaydi. Ta'lim muassasalarida o'qituvchi tomonidan o'zaro muloqot asosida olib boriladigan quyidagi xususiyatlar negizida o'quvchilarda muloqot orqali ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari ifodalanadi:

- har bir insonning qiziqishlarini ko'ra bilish, his etish va hurmat qilish;
- milliy-ma'naviy madaniyat manbalarini o'rganish, o'zligini anglashga ehtiyoj;
- inson hayotida mehnatning o'rnini to'g'ri tushunish;
- insonparvarlik, mehr-oqibat, iymon, e'tiqod, milliy qadriyatlarni e'zozlash;
- Vatanga muhabbat, sadoqat, o'z manfaatlarini jamiyat, xalq manfaatlaridan yuqori qo'ymaslik;
- ota-ona, qarindoshlar va atrofdagilarga nisbatan muruvvatli, sahovatli bo'lish.



O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy jarayonda talabalar ma'naviy madaniyatini shakllantirishda muloqotning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanib, ong va faoliyat birligini ta'minlashi zarur. Ma'naviy ong o'quvchining dunyoqarashi, bilimi, his-tuyg'usi, idroki, irodasi va diqqatining majmuasi bo'lib, u o'qituvchining pedagogik mahorati negizida ta'lim-tarbiyaviy faoliyat asosida shakllantiriladi. O'z navbatida, ong ham faoliyatga ta'sir ko'rsatadi va uni tartibga soladi.

Talabalarning tarbiyaviy muhitda uyushtirilgan ma'naviy faoliyatda ma'naviy madaniyat muammolarini erkin, ongli va adolatli yecha olishga intilishi ta'minlanishi kerak. O'qituvchi bilan o'zaro muloqot jarayonida o'quvchi ongli ravishda o'z munosabatlarini bildirishga, to'g'ri xulosa chiqara olishga, milliy g'urur asosida ularni avaylashga, asrashga, sevishga, umrboqiyiligini ta'minlashga o'rganadi.

Ma'naviy madaniyatning muhim belgilarini shakllantirishda, ta'lim-tarbiya tizimini ma'naviy muhit, ma'naviy faoliyat va ma'naviy anglash bosqichlaridan iborat andozalar asosida tashkil etishda ushbu mezonlar talablariga rioya qilish belgilangan maqsadni samarali amalga oshirish imkonini beradi. Bunda o'qituvchining muloqoti asosida o'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi quyidagi omillar ham muhim ahamiyatga ega:

Talaba ma'naviy faoliyat asosida o'zligini anglashni shakllantirish uchun ma'lum bir muhitda ma'naviy qadriyatlar bilan harakat orqali muloqotga kirishadi. Harakatsiz muhit va faoliyat bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun o'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirish samaradorligini ma'naviy harakat omili ta'minlaydi.

Ma'naviy qadriyatlarning mohiyati, ma'naviy-axloqiy tajriba, o'qituvchining ta'sirchan nutqiy muloqoti vositasida o'quvchilar ongiga singdiriladi. Nutqiy aloqalar tarbiya jarayoni obyektlari va subyektlari orasida kechadi va o'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. O'quvchining xulq namunasi, ma'naviy harakati, nutqiy aloqalar samaradorligi o'qituvchi va o'quvchining muloqoti asosidagi faoliyat munosabatlari bilan belgilanadi.

Ma'naviy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatidan ta'sirlanish va amaliy faoliyatda ularga tayanish, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarilishini ta'minlab, o'quvchi ma'naviy madaniyatini tarbiyalashdagi ahamiyatini yanada takomillashtirish ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilaridan – o'qituvchi va o'quvchidan – doimiy ijodkorlikni talab qiladi. Ijodkorlik milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida uning imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi.

Talaba ma'naviy madaniyatini shakllantirishning muvaffaqiyati o'qituvchining muloqot olib borish psixologik taktikasi omillariga ham bog'liq. Ushbu omilni harakatlantiruvchi sharoitlar:

- o'qituvchining pedagogik, psixologik va maxsus fanlar integratsiyasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi;
- mutaxassisligi bo'yicha kasbiy mahorati;
- talabalarga nisbatan do'stona muloqot madaniyati;
- talabalarning ruhiy holatini tez bilib olishi;
- o'qituvchi ma'naviy madaniyatining shakllanganlik darajasi;
- ta'lim-tarbiyaning zamonaviy usul va metodlarini tanlay bilishi;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bo'yicha chuqur ma'lumotlarga ega bo'lishi;
- o'qituvchining pedagogik jamoa orasidagi hurmat-e'tibori.

O'qituvchi muloqot asosida o'quvchilarda ham ijodkorlik omilini takomillashtirib boradi. Talabada bu sifatlar quyidagi belgilar bilan namoyon bo'ladi:

- ma'naviy qadriyatlarni, an'analarni o'zlashtirishga qiziqishda ehtiyoj va talabning kuchliligi;
- o'rganilayotgan fanlar asoslarini egallashga ijobiy munosabat;
- ma'naviy madaniyat saviyasi, dunyoqarashi;
- o'z-o'ziga nisbatan talabchanlik;
- tabiatga, atrof-muhitga ongli munosabat;
- yangiliklarni va axborot texnologiyalarini o'rganishga qiziqish;
- ijtimoiy va shaxsiy faollik;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi;
- tashabbuskorlik va ijodkorlik.



Talabalarda ma'naviy madaniyatni shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatli kechishi ta'lim mazmuniga asoslanib, o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini to'g'ri tashkil etish saviyasiga bog'liq. Bu quyidagi faoliyat turlarini mukammal bilishni taqozo etadi:

- *Birinchidan*, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas'uliyatni, faollikni va eng asosiysi – muloqot madaniyatiga rioya etishni talab qiladi.
- *Ikkinchidan*, har bir darsda o'qituvchi ham, talaba ham belgilangan maqsadni aniq qo'ya bilishi va amalga oshiriladigan vazifalarni to'g'ri belgilab olishi lozim.
- *Uchinchidan*, dars jarayonida bilimlar mazmunining ilmiyligi, uzluksizligi, izchilligi va tarbiyaviy xarakteri, o'qituvchining notiqlik san'ati asosida bayon etish shaklining mukammalligi, qiziqarliligi talabalarda ta'limiy va tarbiyaviy qadriyatlarga qiziqishni kuchaytiradi.
- *To'rtinchidan*, o'qituvchining pedagogik mahorati, nazariy va uslubiy tayyorgarligi, o'z kasbiga, faniga munosabati, olib boradigan darsi andozasini va uning natijasini oldindan ko'ra bilish har bir dars samaradorligini ta'minlovchi texnik va texnologik belgilardan biridir.
- *Beshinchidan*, dars jarayonida talabalar jamoasiga erkin fikr yuritish, o'z fikr-mulohazasini erkin bayon etishga imkoniyat yaratish, talabalar jamoasi fikriga tayanish, ularning fikr va istaklarini e'tiborga olish, talabalarning mustaqil ishlaridan keng foydalanish zarur.
- *Oltinchidan*, o'quvchilar bilimiga, xulqiga beriladigan bahoning xolisona va adolatli bo'lishi barcha ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etilishiga ijobiy ta'sir etuvchi omil ekanligini unutmaslik kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ta'lim va tarbiya jarayonida talabalar ongiga muloqot asosida milliy qadriyatlar va ma'naviy madaniyatni shakllantirish o'qituvchi faoliyatining eng muhim tarkibiy qismidir. Pedagogik muloqot shunchaki so'z almashish emas, balki shaxsiy fazilatlar, axloqiy qarashlar, ma'naviy qadriyatlar va ijtimoiy tajribaning o'zaro uyg'unlashgan ko'rinishidir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi sog'lom muloqot ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi, o'quvchida insonparvarlik, imyon, mehr-oqibat, odob, mas'uliyat va hurmat kabi yuksak fazilatlarni shakllantiradi.

O'qituvchining nutq madaniyati, shirinsuxanligi, odob-axloq normalariga rioya etishi va milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuvi – muloqot madaniyatining asosiy mezonlaridir. Bu jarayon orqali nafaqat bilim, balki tarbiya ham uzatiladi. O'quvchining o'zini erkin ifoda etish, fikrini madaniyatli tarzda bayon qilish, boshqalarni tinglay bilish ko'nikmalari aynan o'qituvchi bilan samarali muloqot natijasida shakllanadi.

Shuningdek, ta'lim muassasalarida muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun pedagogik jarayonni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish va darslarda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni integratsiya qilish zarur. Bu esa yosh avlodda milliy g'urur, ma'naviy barkamollik va axloqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot madaniyatini rivojlantirish, uni zamon talablariga mos shakllantirish ta'lim tizimining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u shaxs kamolotining, millat ma'naviy yuksalishining va jamiyat barqaror taraqqiyotining muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – 2019-yil 29-aprel.
2. Asaeva I. N. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy muammolari va yo'nalishlari. Zamonaviy fan va ta'lim muammolari, 2008-yil, №4, – B. 36–41.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". <https://clck.ru/RtwJ3>
4. Pedagogika: Ensiklopediya. – Toshkent: 2015. – 368 b.
5. Mahkamova M. Yu. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020-y.
6. Sharon Vunne. Kasbiy pedagogika va mahorat. – AQSh, 2015-y.
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi, 2017-y.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.